# XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI
# Q A R O R I

2022 йил «12» январь VI-38-3-4-0-K/22 Қашқадарё вилояти ҳокимлиги

**Qashqadaryo viloyatining 2022-yilgi mahalliy budjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/837-sonli xatiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) muvofiq, viloyat mahalliy budjetining 2022-yil uchun daromadlari 3 483 mlrd. so‘m, xarajatlari 5 534,3 mlrd. so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 2 051,3 mlrd. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin va o‘rnatilgan tartibda ijroga qaratilsin.

3. 2022-yil uchun viloyatni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy

ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024 yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat budjetidan tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 25,4 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Qashqadaryo viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdoriga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022-yil uchun viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 22,7

mlrd. so‘mni hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar va shaharlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar;

v) viloyat budjeti hamda tumanlar va shaharlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

11. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Erkayev)ga, Moliya bosh boshqarmasi (F.Yusupov), Davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov), tuman (shahar)lar hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlari bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash

zarurligiga alohida e’tibor qaratish topshirilsin.

12. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov)ga, tuman (shahar)lar davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishi hamda o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

viloyatga kirib kelayotgan tovarlarni qonuniyligini ta’minlash maqsadida viloyatdagi yo‘l-patrul xizmat postlarida nazorat tadbirlari o‘tkazish;

aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda monitoring va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish topshirilsin.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘i bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (G‘.Xamrayev), 2022-yildan boshlab yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil qilgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib

borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazsin;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirsin hamda ularni soliq bazasiga qamrab olsin;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (O.Poyonov)ga, viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov) bilan hamkorlikda soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan vakolat doirasidagi barcha zaruriy choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash boshqarmasi (D.Allayev), tumanlar va shaharlar hokimliklari, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha hisobot yilida hisoblangan soliqlar hamda ushbu soliqlardan mavjud qarzdorliklarni undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (SH.Bo‘riyev), Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (I.Jo‘rayev)ga:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida efirga uzatiladigan roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (SH.Bo‘riyev), viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (F.Yusupov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022-yilning 1-iyuliga qadar 2021-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022-yilning
1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Sodiqov), tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘liq to‘lanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

20. Viloyat irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (I.Qurbonov), viloyat davlat soliq boshqarmasi (A.Qodirov), tumanlar va shaharlar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olinishini ta’minlasin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratsin.

21. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (SH.Satvoldiyev), viloyat Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Sadirov), Davlat xizmatlari agentligi viloyat boshqarmasi (M.Eshnazarov), hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida va o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Davlat Moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi (N.Raxmatov), Xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmalarining Ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin hamda bu borada monitoring ishlarini kuchaytirsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad yoki noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisobotini eshitish bo‘yicha har chorakda Kengashga ma’lumot kiritib borsin.

23. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqishga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanish ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish uchun monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishga va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklari:

tumanlar va shaharlar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirib borsin.

Bunda, viloyat, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, fuqarolarning budjet jarayonida faol ishtirokini ta’minlash maqsadida, aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik

rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari (N.Erkayev), xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati, tumanlar va shaharlar hokimliklari, tegishli boshqarmalar boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlari prognoz koʻrsatkichlarini soʻzsiz bajarish hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqsin;

ajratilgan budjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanish yuzasidan erishilgan natijalar boʻyicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Viloyat hokimligi, qonunda belgilangan ayrim soliqlar va yigʻimlar stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa maʼlumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini taʼminlasin.

27. Mazkur qaror viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (R.Raupov) va viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari (N.Erkayev) zimmalariga yuklatilsin.

**Sessiya Raisi** **Ravshanov O. P.**

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
1-илова

# Qashqadaryo viloyatining 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz hamda 2023-2024 yilga mo‘ljallari

| № | Ko‘rsatkichlar | 2022-yil uchun prognoz | Mo‘ljal | |
|---|---|---|---|---|
| | | | 2023-yil | 2024-yil |
| 1 | Yalpi hududiy mahsulot, **(mlrd. so‘m)** | 47 503,0 | 54 876,0 | 62 832,0 |
| 2 | Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati (foizda) | 106,5 | 106,6 | 106,9 |
| 3 | Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati (foizda) | 106,8 | 107,4 | 107,5 |
| 4 | Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (foizda) | 103,5 | 103,7 | 103,9 |
| 5 | Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati (foizda) | 114,2 | 115,3 | 116,1 |

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
2-илова

## Qashqadaryo viloyat mahalliy budjeti daromadlarining

## 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 228 468 000 |
| 2 | Aylanmadan olinadigan soliq | 0 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 595 620 000 |
| 4 | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 0 |
| 5 | Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq | 0 |
| 6 | **Aksiz solig‘i, jami** | 47 100 000 |
| | *- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq* | *47 100 000* |
| 7 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 13 912 000 |
| 8 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 0 |
| 9 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 0 |
| 10 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 0 |
| 11 | Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari) | 0 |
| 12 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 0 |
| 13 | Davlat boji | 133 944 000 |
| 14 | Jarimalar | 88 394 000 |
| 15 | Ijara to‘lovi | 0 |
| 16 | Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad | 0 |
| 17 | Yig‘imlar | 38 403 000 |
| 18 | Xususiylashtirish | 0 |
| 19 | Boshqalar | 9 090 000 |
| **JAMI** | | **1 154 931 000** |
| 20 | Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad | 542 620 000 |
| - | Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo | 205 370 000 |
| - | Mobil aloqa xizmati | 117 000 000 |
| - | Tamaki mahsulotlari | 220 250 000 |

| | | |
|---|---|---|
| 21 | Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar | 873 122 757 |
| **HAMMASI** | | **2 570 673 757** |

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
3-илова

**2022-yil uchun Qashqadaryo viloyati budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

ming so‘m

| № | Ko‘rsatkichlar | miqdori |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, Jami** | | **2 570 673 757,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 137 944 528,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 432 729 229,0 |
| | Advokatlik xizmatiga haq to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lar | |
| **1.** | **Maktabgacha ta’lim boshqarmasi** | **92 856 398,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 8 425 287,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 84 431 111,0 |
| **2.** | **Xalq ta’limi boshqarmasi** | **360 066 111,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 174 054 520,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 186 011 591,0 |
| **3.** | **Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi** | **3 439 973,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 3 439 973,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **4.** | **Sog‘liqni saqlash boshqarmasi** | **484 066 599,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 426 628 099,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 57 438 500,0 |
| **5.** | **Madaniyat boshqarmasi** | **22 185 172,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 22 185 172,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

| | | |
|---|---|---|
| **6.** | **Turizm va sport boshqarmasi** | **14 749 709,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 14 749 709,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **7.** | **Yo‘l harakati ekspluatatsiya va montaj bo‘limlari** | **8 664 658,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 8 664 658,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **8.** | **Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar boshqarmasi** | **64 297 206,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 64 297 206,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **9.** | **Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi** | **12 191 580,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 3 416 580,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | 8 775 000,0 |
| **10.** | **Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi** | **3 826 307,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 3 826 307,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **11.** | **O‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi** | **18 260 637,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 18 260 637,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **12.** | **"Mahalla va oilani qullab quvvatlash" boshqarmasining jamg‘armasi** | **99 412,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 99 412,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **13.** | **Suv xo‘jaligi vazirligi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi** | **1 125 866 812,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 125 866 812,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

| | | |
|---|---|---|
| 14. | **Transport boshqarmasi** | **5 390 937,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 5 390 937,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| 15. | **Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashi kotibiyati** | **482 855,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 482 855,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| 16. | **Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi** | **8 994 954,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 8 994 954,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| 17. | **Moliya bosh boshqarmasi** | **19 169 095,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 4 267 848,0 |
| | Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari | 11 801 247,0 |
| | Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari | 2 100 000,0 |
| | Advokatlik xizmatiga haq to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lar | 1 000 000,0 |
| 18. | **G‘aznachilik boshqarmasi** | **9 559 978,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 9 559 978,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| 19. | **Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmasi** | **15 876 436,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 15 876 436,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| 20. | **Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish boshqarmasi** | **226 639,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 226 639,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| 21. | **Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi** | **2 230 082,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 230 082,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

| | | |
|---|---|---|
| **22.** | **Turizmni rivojlantirish departamenti** | **4 019 484,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 4 019 484,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **23.** | **O‘rmon xo‘jalik boshqarmasi** | **18 902 321,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 18 902 321,0 |
| | Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlariga transfertlar | |
| **24.** | **Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi** | **6 963 303,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 6 963 303,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **25.** | **Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi** | **1 807 503,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 807 503,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **26.** | **Davlat xizmatlari agentligi FXDYO bo‘limlari** | **3 117 481,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 3 117 481,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **27.** | **Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi** | **1 766 872,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 766 872,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **28.** | **Bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmasi** | **1 929 466,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 929 466,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **29.** | **Qurilish boshqarmasi** | **2 263 223,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 263 223,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **30.** | **Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi** | **11 213 687,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 11 213 687,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

| | | |
|---|---|---|
| **31.** | **Adliya boshqarmasi** | **6 203 169,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 6 203 169,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **32.** | **Viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘alikni qisqartirish boshqarmasi** | **10 840 246,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 10 840 246,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **33.** | **Viloyat hokimligi** | **24 905 818,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 24 905 818,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **34.** | **Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining hududiy boshqarmasi** | **9 950 206,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 9 950 206,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **35.** | **Saylov komissiyalari** | **67 473,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 67 473,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **36.** | **Arxiv ishi boshqarmasi** | **2 551 965,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 551 965,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **37.** | **Mahalla va oilalarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi** | **2 469 300,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 2 469 300,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |
| **38.** | **Viloyat Hokimligining zahira jamg‘armasi** | **25 452 215,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 25 452 215,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar | |

| | | |
|---|---|---|
| **39.** | **Yoshlar ishlari agentligi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi** | **5 754 422,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 5 754 422,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| **40.** | **Ijtimoiy ko'nikma markazlari** | **140 113,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 140 113,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| **41.** | **Issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari(subsidiyalar)** | **1 899 238,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 1 899 238,0 |
| **42.** | **Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash** | **41 765 800,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 41 765 800,0 |
| **43.** | **Markazlashtirilgan investitsiyalarini moliyalashtirish xarajatlari** | **432 729 229,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | 432 729 229,0 |
| **44.** | **Qashqadaryo viloyati Davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi** | **3 243 564,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 3 243 564,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |
| **45.** | **Boshqa xarajatlar** | **6 097 311,0** |
| | *shu jumladan:* | |
| | joriy xarajatlar | 6 097 311,0 |
| | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar | |

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
4-илова

## Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga 2022-yildagi ajratmalari me’yorlari

*foiz hisobida*

| T/R | Tuman va shaharlar nomi | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | Aylanmadan olinadigan soliq | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Yuridik shaxslar yer solig‘i | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qarshi shahar | 0 | 100 | 10 | 100 | 20 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 2 | Shahrisabz shahri | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 3 | G‘uzor tumani | 0 | 100 | 10 | 100 | 100 | 10 | 100 | 100 | 100 |
| 4 | Dehqonobod tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 5 | Qamashi tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 6 | Qarshi tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 50 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 7 | Koson tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 8 | Kitob tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 9 | Muborak tumani | 0 | 100 | 10 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 10 | Nishon tumani | 0 | 100 | 40 | 100 | 100 | 10 | 100 | 100 | 100 |
| 11 | Kasbi tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 12 | Chiroqchi tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 13 | Shahrisabz tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 14 | Yakkabog‘ tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 15 | Mirishkor tumani | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

*foiz hisobida*

| **T/R** | **Shahar va tumanlar nomi** | **Yer qa’ridan foydalangan-lik uchun soliq (noruda materiallari)** | **Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq** | **Davlat boji** | **Jarimalar** | **Yig‘imlar** | **Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma** | **Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari** | **Xususiylash-tirish** | **Boshqalar** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qarshi shahar | 100 | 100 | 0 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 2 | Shahrisabz shahri | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 3 | G‘uzor tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 4 | Dehqonobod tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 5 | Qamashi tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 6 | Qarshi tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 7 | Koson tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 8 | Kitob tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 9 | Muborak tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 10 | Nishon tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 11 | Kasbi tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 12 | Chiroqchi tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 13 | Shahrisabz tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 14 | Yakkabogʻ tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |
| 15 | Mirishkor tumani | 100 | 100 | 0 | 0 | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 |

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
5-илова

**Tumanlar va haharlar mahalliy budjetlarining 2022-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi**

ming soʻm

| **Budjetlar nomi** | **Daromad *** | **Xarajat** |
|---|---|---|
| **JAMI** | **3 482 979 000,0** | **5 534 294 616,0** |
| Viloyat budjeti | 1 697 551 000,0 | 2 570 673 757,0 |
| Qarshi shahar | 184 994 000,0 | 226 404 166,0 |
| Qarshi tumani | 138 850 000,0 | 210 030 585,0 |
| Mirishkor tumani | 95 080 000,0 | 121 372 518,0 |
| Gʻuzor tumani | 141 940 000,0 | 206 030 114,0 |
| Dehqonobod tumani | 105 600 000,0 | 140 590 025,0 |
| Qamashi tumani | 101 210 000,0 | 238 848 499,0 |
| Koson tumani | 130 450 000,0 | 226 371 724,0 |
| Kitob tumani | 118 815 000,0 | 212 520 240,0 |
| Muborak tumani | 60 760 000,0 | 82 348 648,0 |
| Nishon tumani | 112 454 000,0 | 140 006 099,0 |
| Kasbi tumani | 96 300 000,0 | 184 314 444,0 |
| Chiroqchi tumani | 166 470 000,0 | 344 062 829,0 |
| Shahrisabz tumani | 107 562 000,0 | 232 727 519,0 |
| Yakkabogʻ tumani | 119 120 000,0 | 247 577 670,0 |
| Shahrisabz shahar | 105 823 000,0 | 150 415 779,0 |

** mobil aloqa xizmatlari uchun, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo va tamaki mahsulotlari uchun aksiz soligʻidan tushumlar boʻyicha oʻtkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
6-илова

## Tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining 2022-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘m

| **Tumanlar va shaharlar** | **Tartibga soluvchi transfert miqdori** |
|---|---|
| **JAMI** | **2 051 315 616,0** |
| *Shundan:* | |
| Viloyat budjeti | 873 122 757,0 |
| Qarshi shahar | 41 410 166,0 |
| Qarshi tumani | 71 180 585,0 |
| Mirishkor tumani | 26 292 518,0 |
| G‘uzor tumani | 64 090 114,0 |
| Dehqonobod tumani | 34 990 025,0 |
| Qamashi tumani | 137 638 499,0 |
| Koson tumani | 95 921 724,0 |
| Kitob tumani | 93 705 240,0 |
| Muborak tumani | 21 588 648,0 |
| Nishon tumani | 27 552 099,0 |
| Kasbi tumani | 88 014 444,0 |
| Chiroqchi tumani | 177 592 829,0 |
| Shahrisabz tumani | 125 165 519,0 |
| Yakkabog‘ tumani | 128 457 670,0 |
| Shahrisabz shahar | 44 592 779,0 |

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
7-илова

# Viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarida 2022-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

| T/r | Hudud nomi | Miqdor |
|---|---|---|
| | **JAMI** | **22 709 000,0** |
| *Shundan:* | | |
| 1 | Viloyat budjeti | 6 628 944,0 |
| 2 | Qarshi shahar | 1 562 051,0 |
| 3 | Qarshi tumani | 1 216 266,0 |
| 4 | Mirishkor tumani | 709 789,0 |
| 5 | G‘uzor tumani | 1 171 369,0 |
| 6 | Dehqonobod tumani | 904 116,0 |
| 7 | Qamashi tumani | 957 976,0 |
| 8 | Koson tumani | 1 367 493,0 |
| 9 | Kitob tumani | 1 369 974,0 |
| 10 | Muborak tumani | 589 585,0 |
| 11 | Nishon tumani | 843 871,0 |
| 12 | Kasbi tumani | 847 034,0 |
| 13 | Chiroqchi tumani | 1 302 273,0 |
| 14 | Shahrisabz tumani | 1 174 621,0 |
| 15 | Yakkabog‘ tumani | 1 101 394,0 |
| 16 | Shahrisabz shahar | 962 244,0 |

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 12 январдаги
VI-38-3-4-0-K/22-сон қарорига
8-илова

## Коррупциявий омилларни аниқлаш бўйича

ЧЕКЛИСТ

| **Йўналишлар** | **Коррупциявий омиллар** | **Жавоблар** | | | | **Коррупциявий омил мавжуд норма ва унинг асоси** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Нормаларнинг барқарорлиги ва ҳуқуқий мувофиқлиги билан боғлиқ коррупциявий омиллар** | Сўзларнинг нотўғри қўлланилиши | | | йўқ | | |
| | Ноаниқ ва асоссиз ҳаволалар келтирилганлиги | | | йўқ | | |
| | Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасида зиддиятларнинг мавжудлиги | | | йўқ | | |
| **Ваколатлар, ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқ коррупциявий омиллар** | Дискрецион ваколатларнинг кенглиги | | | йўқ | | |
| | Аниқ белгиланмаган ваколатлар | | | йўқ | | |
| | Давлат органларининг такрорловчи ваколатлари ва вазифаларнинг мавжудлиги | | | йўқ | | |
| | Давлат органи томонидан ўзининг ваколатига кирмайдиган масалалар бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниши | | | йўқ | | |
| | Вазифа ёки топшириқни бажариш учун ижрочида етарли ваколатлар ва ресурсларнинг мавжуд эмаслиги | | | йўқ | | |
| | Кечиктириб тартибга солиш | | | йўқ | | |
| | Манфаатлар тўқнашуви | | | йўқ | | |
| | Афзалликларнинг асоссиз белгиланиши | | | йўқ | | |
| | Норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг кучга киришини асоссиз равишда кечиктириш | | | йўқ | | |
| | Ҳуқуқ ва мажбуриятлар ўртасидаги номутаносибликлар | | | йўқ | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Маъмурий тартиб-таомиллар билан боғлиқ коррупциявий омиллар** | Маъмурий тартиб-таомилларнинг мавжуд эмаслиги ёки тўлиқ эмаслиги | | | йўқ | | |
| | Белгиланган қоидалардан чиқувчи истисноларни асоссиз ўрнатилиши | | | йўқ | | |
| | Ортиқча ва асоссиз талабларнинг ўрнатилганлиги | | | йўқ | | |
| | Вақт чегараларининг аниқ белгиланмаганлиги | | | йўқ | | |
| | Тўлов миқдорлари аниқ белгиланмаганлиги | | | йўқ | | |
| | Санкцияларнинг номутаносиблиги | | | йўқ | | |
| | Чора-тадбирларни амалга оширишнинг молиялаштириш манбалари ноаниқлиги | | | йўқ | | |
| **Назорат билан боғлиқ коррупциявий омиллар** | Шикоят қилиш тартибининг мавжуд эмаслиги | | | йўқ | | |
| | Шаффофлик ва жамоатчилик назоратини таъминлашдаги бўшлиқлар | | | йўқ | | |
| | Давлат органларининг фаолияти устидан назорат қилишнинг шакллари ва турлари белгиланмаганлиги | | | йўқ | | |